

# **MODULLI O'QITISHDA O'QUVCHILAR IJODKORLIK QOBILYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI**

**Azamatov Islom Yetmishovich, Mo'minov Sarvar Qo'chqarovich**

*'A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lif yo'naliishi magistrantlari,*

*Jizzax, O'zbekiston*

*e-mail: jdpi.islom@mail.ru*

*Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. S.Ubaydullayev*

**Annotatsiya.** Maqolada modulli o'qitishda o'quvchilar ijodkorlik qobilyatlarini shakllantirishning zamonaviy tendensiyalarining ahamiyati asoslangan.

**Kalit so'zlar:** ta'lif, innovatsiya, modul, axborot, metod, pedagogika, texnologiya, kompetensiya, ijodkorlik.

\*\*\*

**Аннотация:** В статье рассматривается обучения модульного, инновационного, информационного технологии в формировании творческих способностей учащихся.

**Ключевые слова:** Образование, инновация, модуль, информация, метод, педагогика, технология, компетенция, творчества.

\*\*\*

**Abstract:** The article examines the teaching of modular, innovative, information technology in the formation of students' creative abilities.

**Key words:** education, innovation, information, module, information, method, pedagogy, technology, competence, creativeness.

Bugungi kunda har qanday davlatning asosiy tendensiyasida innovatsion faoliyat yuqori o'rirlarni egallamoqda. Innovatsiya hayotimizga kirib kelganiga hech qancha bo'lmay sezilarli darajada misli ko'rinnagan texnologiyalarni taqdim etmoqda. Shu bilan bir qatorda jamiyatning barcha sohalarining rivojiga o'zining ta'sirini ko'rsatibgina qolmay, balki ta'lif sohasi tizimiga ham bir qancha texnologiyalarni taqdim etmoqda[1]. Ta'lif tizimida innovatsiyalarni yanada rivojlantirish maqsadida izchil ishlar amalga oshirilmoqdaki - bu esa ta'lif sifatini oshishiga keljakda yetuk kadrlar tayyorlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan yana bir masala, bu - farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir [2]. Bugungi mustaqil diyorimizga o‘z-o‘zidan salohiyatli yoshlar doim maqsad sari intiluvchi komil inson sari harakatdagi o‘quvchilar vatanimizning ertasi ekanligi kun sayin etirof etilmoqda.

Texnologiya fanining rivojlanish tendensiyalarini, ta’lim berish metodlarini, shakllari hamda o‘qitishning ilg‘or pedagogik va innovatsiyalarga oid bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O‘quvchilarni har tomonlama barkamol rivojlangan, hozirgi zamon ruhida tarbiyalangan, bozor iqtisodiyoti davrida ta’lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirishga oid dolzarb muammolarni ijobiy hal eta oladigan, milliy istiqlol g‘oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni ta’lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs - texnologik ta’lim o‘qituvchisi sifatida shakllantirish zamon talabidir. Texnologik ta’lim va kasb tanlashga yo‘llash bo‘yicha ta’lim mazmunining uzviyligi va o‘zaro bog‘liqligi; o‘quv moddiy texnik bazasining tashkil etilishi (o‘quv materiallari va moslamalar bilan ta’milanishi); davlat ta’lim standartlarining ishlab chiqilish mezonlari va unga qo‘yiladigan talablarni, kasb tiplari, kasbga yaroqlilik, kasb tanlashga ta’sir etuvchi omillarni bilishi kerak.

O‘quvchilarning mehnat tayyorgarligi bo‘yicha o‘quv rejasi va dasturlar mazmunini, o‘quv jarayonini tashkil etish va texnologik ta’lim, kasb tanlashga yo‘llashga oid rejalashtiruvchi hujjatlarni ishlab chiqish, texnologik ta’lim va kasb tanlashga yo‘llash darslarini olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak [3]

Texnologik ta’limning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- o‘quvchi-yoshlar tomonidan yaratilgan ijodiy loyiha ishlari natijalarini tijoratlashtirish ishlarini bosqichma-bosqich joriy etish;
- pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqqan

holda texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akseleratorlarni tashkil etish hamda ularni faoliyat olib borishlarini ta'minlash;

- startap loyihalari asosida tijoratlashtirish salohiyati yuqori iqtidorli o'quvchi-yoshlarning ilm-fanga keng jalg etilishini rag'batlantirish;
- iqtidorli o'quvchi-yoshlarni aniqlash, chuqurlashtirilgan (variativ) ta'limgasturlari asosida o'qitish, "Ustoz-shogird" tizimi asosida tegishli sohada yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislarga biriktirish;
- texnologiya fani bo'yicha umumiy o'rta ta'limgastimida fan olimpiadalarini tashkil etish va iqtidorli o'quvchi-yoshlar ishtirokini oshirish;
- innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda mакtabgacha, umumiy o'rta, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'limgastim hamda oliy ta'limgastimlari bilan uzviyligini ta'minlash.[4]

Modulli o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'limgastim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. An'anaviy ta'limgastimda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya'ni bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, modulli o'qitishda ta'limgastim oluvchilar faoliyati orqali ifodalananib, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi. Modulli o'qitish texnologiyasining an'anaviy o'qitishdan farqli xususiyatlarini quyidagi jadvalda keltirdik.

<b>An'anaviy o'qitish texnologiyasiga asoslangan</b>	<b>Modulli o'qitish texnologiyasiga asoslangan</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- bir tomonga yo'naltirilgan axborot,</li> <li>- bir tomonlama muloqot (darslik o'quvchi o'quvchi),</li> <li>- axborot olish,</li> <li>- xotirada saqlash,</li> <li>- ma'nosini tushunmagan holda mexanik tarzda yodlash.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni rag'batlantirish,</li> <li>- ikki tomonlama muloqot,</li> <li>- tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish,</li> <li>- bilim va ko'nikmalarni namoyish etish,</li> <li>- mazmunni tushunish va hayotga bog'lash.</li> </ul>

Ushbu jadvalning tahlili shuni ko'rsatadi, modulli texnologiyaga asoslangan ta'limgastim an'anaviy ta'limgastimdan o'qitish usullari va vositalari uni tashkil etish va natijalari bilan sezilarli farq qiladi. Modulli o'qitish ta'limgastimning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi. Modul –

faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallash va tizimlash dasturlarni o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Modulli o‘qitishda o‘quv dasturlarini to‘la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o‘qitish imkoniyati yaratiladi. Ya’ni o‘qitishni individuallashtirish mumkin bo‘ladi. Modulli o‘qitishda quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi:

- o‘qitishning uzluksizligini ta’minlash;
- o‘qitishni individuallashtirish;
- o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o‘qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o‘zlashtirishga erishish.

Modulli o‘qitish fanning asosiy masalalari bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar beruvchi muammoli va yo‘riqli ma’ruzalar o‘qilishini taqozo etadi. Ma’ruzalar o`quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog‘i lozim. Modul amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari ma’ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma’ruzalar mazmunini o‘rganiladigan yangi material bilan to‘ldirilishi kerak.

Modulli o‘qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o‘qitishning quyidagi usullarini qo‘llash mumkin:

1) muammoli muloqotlar; 2) evristik suhbatlar; 3) o‘quv o‘yinlar; 4) loyihalash va yo‘naltiruvchi matnlar va hokazo. O‘qitishning modulli tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlandi:

- fanlar va fanlar ichidagi modullar orasidagi o‘qitish uzluksizligini ta’minlanishi;
- har bir modul ichida va ular orasida o‘quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligini o‘rnatilishi;
- fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;
- o`quvchilar o‘zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so‘ng) qilinishi;

- o`quvchilarning zudlik bilan qobiliyatiga ko`ra tabaqlanishi (dastlabki modullardan so`ng o`qituvchi ayrim o`quvchilarga fanni individullashtirishni tavsiya etishi mumkin);

- axborotni «siqib» berish natijasida o`qitishni jadallashtirish, auditoriya soatlariidan samarali foydalanish va o`quv vaqtini tarkibini ma`ruzaviy amaliy (tajribaviy) mashg`ulotlar individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni optimallashtirish. Buning natijasida o`quvchi yetarli bilim, ko`nikmaga ega bo`ladi. Modulli metodika asosida o`qitishda faoliyatlik, tizimli kvantlash, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, kognitiv vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

O`tkazilgan tadqiqotlarga ko`ra modulli metodika asosida o`qitishning quyidagi tamoyillari ochib berildi: ijodkorlik o`quvchi egallayotgan bilimlarning mustahkamlash va mukammallashni ta`minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi. Bu holat ayniqsa bo`lajak mutaxassislarning fan asoslarini o`zlashtirishda, keyinchalik bu jarayonga bevosita rahbarlikni amalga oshirishda ijodiy ish shakllarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Odatda ijodkor o`quvchilar eng yaxshi ma`lumotlarni o`zlashtirishga va amaliy tajribalarni egallahashga intiladilar. Ijodkorlik faoliyatini eng yuqori natijasi sifatida ixtiolar ilmiy kashfiyotlar kabi, ma`lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash jarayonida yaratiladi.

Bugungi kunda ijodkorlik faoliyatining amaldagi holatiga ko`ra aytish mumkinki, yangi texnik yechimni ishlab chiqish uchun talab etiluvchi eng yangi axborot, ma`lumot va bilimlarni jamlash, qayta ishlash va qabul qilishda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilmasdan turib sohani jahon talablari darajasida rivojlantirib bo`lmaydi.

Ijodkorlik – yangi ijodiy va manaviy boyliklarni yaratishga yo`naltirilgan faoliyat turi. Bunday faoliyat turi Respublikamizda 1920 yildan boshlangan bo`lib, hozirgi kunga kelib yanada takomillashib, rivojlanib kelmoqda. Usbu ijodkorlik qobiliyatları o`z ichiga quyidagi to`rt davrni qamrab oladi.

Birinchi davrda fikrlash faoliyati produktiv xususiyatga ega bo'ladi, bunda mavjud muammoni anglash, idrok qilish, yechimini topishga ehtiyoj sezish jarayoni boradi. Izlanuvchining bilim va tajribasi qanchalik ko'p bo'lsa, bu jarayon shu qadar kam vaqt davom etib, reproduktiv xarakterga ega bo'lgan,

Ikkinci davr – muammo yechimini topishga o'tiladi. Bu davrning davomiyligi ham izlanuvchi bazaviy bilimi, tajribasi, dunyoqarashi kengligi, qidirilayotgan yechimning izlanuvchan mutaxassisligiga bog'liq bo'lib, unda qaralayotgan muammoning yechimi bo'lib xizmat qila oladigan holatlar tahlil qilinadi.

Uchinchi – produktiv davrda hal qilinishi lozim bo'lgan muammo va tanlangan yechim o'zaro bog'lanadi va texnik yechim konsepsiysi taklif qilinadi. U ixtironi amalga oshirishning eng mas'ulyatli davri bo'lib, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi taklif etilayotgan g'oyaning ijtimoiy bahosini shakllantirishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, yechim ijjobiy natija bersa, uning amaliyotga tadbiq qilishiga asos yaratiladi, yoki aksincha, yechim kutilgan natijani bermasa u inkor qilinadi.

To'rtinchi, reproduktiv davrda taklif etilayotgan yechimni asoslash uchun hisoblash va tajriba sinov ishlari bijarilib, texnik yechimni ishlab chiqishning uchinchi davrida amalga oshirilgan ishlarning natijasi nazariy va amaliy isbotlab beriladi [6].

Har bir bosqichning natijasi o'quvchilarda texnik fikrlash, mehnat ko'nikma va malakalari rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Har bir ishda va faoliyatda insondan ijodkorlik, ijodiy yondashuv ta'lab qilinadi oddiy uy-ro'zg'or elektr isitish asboblari turmushda ko'p ishlatiladigan jihozlarimizdan biri u ovqat tayyorlash, suv isitish, xonalarni isitishda foydalaniladi [7]. Ushbu jihozlardan to'g'ri foyadalanish, qayta ta'mirlash soz xolatga keltirish uchun ham o'quvchidan ijodkorlik va ijodiy yondashuv ta'lab qilinadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, o'quvchilarning ijodiy faoliyatiga tayyorgarlik darajani ko'rsatuvchi beshta me'yoriy jihatlar tavsiya etiladi:

1. O'quvchilarning buyumni uning shaklini takomillashtirish yoki detallarni ratsional joylashtirish maqsadida chizmaga, sxemaga qisman o'zgartirish kiritib, berilgan hujjatlar bo'yicha tayyorlay olish.
2. O'quvchining instruksiyalashni oxiriga yetkazib va berilgan texnik hujjatga yoki alohida sxemaning o'ziga o'zgartirishlar kiritib buyumlarni yasay olish.
3. O'quvchining buyumni, uning konstruksiyasini dastlabki original takomillashtirib va texnologik hujjat yoki sxemaga mustaqil holda o'zgartirishlar kiritib tayyorlay olish.
4. O'quvchining original konstruktorlik g'oyasini mutaqil holda texnologik jihatdan ishlab chiqishi va uni tayyorlashni uddalay olish.
5. O'quvchi buyumning original konstruktorlik yoki ratsionlizatorlik g'oyasini mustaqil holda asoslab va ta'riflab bera oladi, hujjatlarni ishlab chiqish va buyum yashashni bajara oldi [8].

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. [http://spcenter.uz/uz/news/Talim\\_sohasida\\_Innovatsion\\_yondashuv\\_va\\_zamonaviy\\_tendensiyalar](http://spcenter.uz/uz/news/Talim_sohasida_Innovatsion_yondashuv_va_zamonaviy_tendensiyalar).
2. Mirziyoyev Sh.M.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O'zbekiston. 2017 yil.
3. Tolipov O'. Q. Texnologik ta'limning taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari. Toshkent.2021.
4. Texnologik ta'limning uzviyligini ta'minlash konsepsiysi (loyiha). Toshkent. 2021
5. Olimov Q.T. Zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalari bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar. Toshkent. 2018.
6. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Toshkent. 2011.
7. Murtazayev M.Z., Muxliboyev M.Q. Uy-ro'zg'or asoslari. Guliston-2021.

8. Abduraimov Sh.S. Perfection Of Technology Of Preparation Of Future Teachers Of Vocational Education To The Designing Activity The Main Contents Of The Dissertation 2020.